

## ANTIK DAVRDAGI SAMARQAND TARIXI INGLIZ TILLI TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI

Mavlanov.A<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ``Tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari`` kafedrası doktoranti

### MAQOLA MALUMOTI

### ANNOTATSIYA:

#### MAQOLA TARIXI:

Received:22.06.2025

Revised: 23.06.2025

Accepted:24.06.2025

#### KALIT SO'ZLAR:

Samarqand, antik davr,  
ingliz tadqiqotchilari,  
tarixshunoslik, Afrosiyob,  
Aleksandr Makedonskiy.

Mazkur maqolada ingliz tadqiqotchilarining antik davr Samarqandi haqida olib borgan ilmiy izlanishlari, ular tomonidan shakllangan tarixiy tasavvurlar va Samarqandning qadimgi taraqqiyoti haqidagi baholari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy tarixiy yondashuvlar hamda talqinlar atroflicha nuqtai nazaridan tahlil qilinadi..

**KIRISH.** Samarqandning antik nomi — Marakanda qadim zamonlardan Markaziy Osiyoning siyosiy, savdo va madaniy markazi sifatida mashhur bo'lgan. Antik tarixchilarning asarlarida tez-tez tilga olingan bu shahar XIX asrda ingliz tadqiqotchilari e'tibor markaziga tushdi. Ularning Maroqand haqidagi tadqiqotlari asosan antik manbalar — Arrian, Qadimgi yunon tarixchilari va arab geograflarining ma'lumotlariga asoslangan. O'zbekiston hududida qadimdan mavjud bo'lgan shaharlar orasida Maroqand o'zining boy tarixi, madaniyati va qadimiylilik darajasi bilan alohida o'rin tutadi. Tarixiy manbalarda ko'plab nomlar bilan atalgan bu shahar asosan "Maroqand" shaklida mashhur bo'lib, uning atamasi va kelib chiqishi haqida ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Ushbu maqolada "Maroqand" atamasining ilmiy asoslari, uning etimologiyasi va tarixiy taraqqiyoti yoritib beriladi. "Maroqand" so'zi ilk bor qadimgi yunon va fors manbalarida tilga olingan. Yunon tarixchisi Arrian va Strabon asarlarida bu shahar "Marakanda" nomi bilan qayd etilgan. O'z navbatida, qadimgi fors tilida ham ushbu nomga o'xshash shakllar uchraydi.

Tilshunoslarning fikriga ko'ra, "Maroqand" atamasi ikki qismdan tashkil topgan:

"Mara" — suv, daryo (ba'zi manbalarda "keng", "katta" ma'nolarida); "Kand" — shahar, qishloq. "Kand" yoki "kent" qo'shimchasi Markaziy Osiyodagi ko'plab qadimiy

shaharlarda uchraydi (masalan, Toshkent, Samarqand, Panjikent). Shunday ekan, "Maroqand" nomi "suv bo'yidagi shahar" yoki "katta daryo yaqinidagi shahar" ma'nosini anglatgan bo'lishi ehtimol. Ba'zi tadqiqotchilar esa "Maro" ildizini qadimgi sak va massaget qabilalarining tillari bilan bog'laydi. Ushbu fikrga ko'ra, "Maro" — ularning tilida "suv", "hayot manbai" kabi ma'nolarni bildirgan.

Maroqand tarixi miloddan avvalgi IV asrda Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy)ning Sharqiy yurishlari davrida keng yoritilgan. Arrianning "Anabasis" asarida Maroqand katta va mustahkam shaharlardan biri sifatida ta'riflangan.

Maroqand shuningdek, qadimgi forslarning "Avesto" kitobida ham tilga olingan bo'lib, bu hudud zardushtiylik dinining erta markazlaridan biri bo'lgani taxmin qilinadi. Oradan asrlar o'tib, arab geograflari va tarixchilari ham Maroqand haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Masalan, Ibn Havqal va Muqaddasiylar o'z asarlarida Maroqandni Movarounnahrning eng muhim savdo va madaniy markazlaridan biri sifatida tasvirlashgan. Maroqand atamasi o'zining qadimiy ildizlari va boy tarixiy asoslari bilan ilmiy tadqiqotlarga munosib mavzudir. Tilshunoslik va tarixiy manbalar tahliliga ko'ra, "Maroqand" nomi suv yoki katta daryo yaqinidagi shahar ma'nosini anglatgan bo'lib, u Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida shakllangan. Bugungi kunda Maroqand — ya'ni zamonaviy Samarqand — o'z tarixiy sharafiga davom ettirib kelmoqda.

XIX asr britan tadqiqotchilari antik Marakandani Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) yurishlari bilan bevosita bog'lab o'rganganlar. Sir Alexander Burnes o'zining Travels into Bokhara (1834) asarida Samarqandni qadimgi yunon manbalarida tasvirlangan Marakanda bilan aynanlashtiradi va uni "Sharqdagi eng qadimiy va mashhur shaharlaridan biri" deb ataydi. Burnesning fikricha, Samarqand miloddan avvalgi IV asrda ham savdo va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan markaz bo'lib, uning qadimgi devorlari va xarobalari bu ulug' tarixdan dalolat beradi. [1]

Arminius Vambéry 1860-yillar oxirida Markaziy Osiyoga qilgan safari davomida Afrosiyob xarobalarini o'rganadi va ularni qadimgi Marakandaning qoldiqlari sifatida talqin qiladi<sup>2</sup>. Vambéry o'z asarida Samarqandni "Sharqning Afina shahri"ga qiyoslab, uning madaniy va siyosiy markaz sifatidagi rolini yuqori baholaydi. [2]

George Nathaniel Curzon, o'zining "Russia in Central Asia" (1889) asarida Samarqandni antik davr tarixiy nuqtai nazaridan emas, balki siyosiy-geosiyosiy kontekstda o'rganadi. U Marakandani qadimgi davrda strategik savdo markazi va harbiy baza sifatida ta'riflaydi. [3]

Ingliz tadqiqotchilari tomonidan antik Samarqand tarixi quyidagicha baholangan:

- Sharq sivilizatsiyasining markazi sifatida e'tirof etilgan, biroq G'arb tsivilizatsiyasining ustunligi nuqtai nazaridan talqin qilingan;

- Savdo va harbiy strategiya markazi sifatida qadrlangan;

- Qadimgi manbalar asosida ekzotik va romantik obrazda tasvirlangan. Zamonaviy sharhlovchilar, xususan Edward Said, bu tasvirlarni mustamlakachilik qarashlarining natijasi sifatida ko'rib chiqadilar. [4]

Qadimgi Samarqand Buyuk Ipak Yo'li orqali o'tgan savdo karvonlari uchun muhim tranzit punkt edi. Shahar ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar, metall mahsulotlari, qog'oz va boshqa tovarlar savdosi bilan mashhur bo'lgan. Ayniqsa, Xitoy ipaklari va Rim zargarlik buyumlari Samarqand orqali o'tgan. Aynan Samarqand bu hududda chorraha vazifasini bajargan. Keyingi davrlarda ham ayniqsa temuriylar davrida shaharning ham markaz ham savdo transit hududi borasidagi nufuzi bo'lgan. Ingliz tarixshunosi Peter Frankopan auni shu jarayonlarni o'rganib o'tadi.

Uning qarashlarida Samarqandning savdo yo'lida tutgan o'rni atroflicha o'rganiladi. Peter Frankopan o'zining 'The Silk Roads: A New History of the World' asarida shunday yozadi: "Samarkand was a marketplace of dreams, a hub where precious goods changed hands, and ideas, art, and religion flourished" asarida nafaqat savdo-iqtisodiy masalalar hamda shu bilan birgalikda madaniy sohlalar o'rtasidagi aloqalar ham bayon etiladi. Shuningdek, diniy aloqalar ham atroflicha bayon etilgan.

Zardushtiylar jamoalari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. [5] Savdo nafaqat iqtisodiy farovonlikni ta'minladi, balki Samarqandni ilm-fan, san'at va diniy g'oyalar tarqalishining markaziga aylantirdi.

Buyuk Ipak Yo'li faqat tovarlar emas, balki g'oyalar va bilimlar almashinuvi uchun ham zamin yaratdi. Samarqandda buddizm, zardushtiylik, islom, xristianlik va boshqa diniy oqimlar iz qoldirgan. Rene Grousset o'z tadqiqotida Samarqandni "a grand bazaar of civilizations" deb ataydi. Tabiiyki, bozor munosabatlari davlatni rivojiga salmoqli ta'sir qiladi. Bugungi kun nuqtai nazari bilan ham bu o'z ibotini topib kelmoqda. Rene Grousset ham aynan Samarqand sivilizatsiya ham o'choqlaridan biri hamda yirik bozor sohasiga ixtisoslashganiga urg'u berib o'tadi. [6]

Bu shahar orqali buddist monastirlar, musulmon madrasa va xristian missionerlari o'z ta'sirini yoygan. Arxitektura, adabiyot va ilm-fan sohalaridagi madaniy boyliklar aynan shu almashinuv natijasida rivoj topgan.

Qadimgi davrda Samarqand ko'plab imperiyalarning markaziy shaharlaridan biri bo'lgan. Salavkiylar, Kushonlar, Sosoniylar va keyinchalik Arab xalifaligi Samarqandni o'z siyosiy va ma'muriy markazi sifatida rivojlantirganlar.

Valerie Hansen ta'kidlagan: "The Sogdian merchants of Samarkand held a monopoly on trade along the Silk Road, and their influence stretched from China to Byzantium". [7] Bu siyosiy kuch Samarqandning nafaqat iqtisodiy, balki diplomatik tarmoqlar orqali ham butun Osiyo bo'ylab ta'sirini kengaytirishga imkon berdi.

Buyuk Ipak Yo'li orqali o'tgan texnologiyalar, masalan, qog'oz ishlab chiqarish texnikasi Samarqand orqali tarqalgan. Arablar va keyinchalik Yevropaliklar qog'oz tayyorlash sirlarini aynan Samarqand ustalaridan o'rgangan.



Jonathan Bloom shunday yozadi: "Paper-making, a Chinese invention, found a new home in Samarkand, from where it eventually spread westward into the Islamic world and Europe". Bu kashfiyot madaniyat va ilm-fan rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. [8]

**Xulosa,** Antik davr Samarqandi ingliz tadqiqotchilari uchun ko'proq tarixiy va strategik qiziqish uyg'otgan markaz sifatida namoyon bo'lgan. Burnes, Vambéry va Curzon kabi olimlarning asarlari orqali Samarqand qadimiy sivilizatsiyalar tarixidagi o'z o'rnini mustahkamladi. Biroq, ularning yondashuvlari zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan tanqidiy qayta ko'rib chiqilishni talab qiladi.

#### References:

1. Burnes, A. (1834). Travels into Bokhara: Being an Account of a Journey from India to Cabool, Tartary and Persia. London: John Murray.
2. Vambéry, A. (1864). Travels in Central Asia. London: John Murray.
3. Curzon, G. N. (1889). Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question. London: Longmans, Green and Co.
4. Said, E. W. (1978). Orientalism. New York: Pantheon Books.
5. Frankopan, Peter. "The Silk Roads: A New History of the World". Bloomsbury Publishing, 2015.
6. Grousset, René. "The Empire of the Steppes: A History of Central Asia". Rutgers University Press, 1970.
7. Hansen, Valerie. "The Silk Road: A New History". Oxford University Press, 2012.
8. Bloom, Jonathan. "Paper Before Print: The History and Impact of Paper in the Islamic World". Yale University Press, 2001.